



Xorazm viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar oyi uchun dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 640 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 71 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 569 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 1 257,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvariga nisbatan 11,2 % ga oshdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 60,2 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 138,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 196,7 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 313,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 114,7 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)





Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 398 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 28 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 370 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 725,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar oyiga nisbatan 16,2 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 683,4 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,0 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi esa 94,2 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'ati Xiva (36,3 m.), Tuproqqal'a (24,8 m.), Hazorasp (14,7 m.), Qo'shko'pir (11,0 m.) tumanlarida kuzatildi.



Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 521 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 519 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 867,6 mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2025- yilning mos davriga nisbatan 18,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 89,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmining o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: M.Egamov Tel: (9090)	Ijrochi: R.Buxarbayev Tel: (9091) e-pochta: savdo@xorazmstat.uz	Manzil: 220100, Urganch sh., Al-Xorazmiy ko'chasi,93
---	---	--	--